“O‘zkimyosanoat” AJ xodimlari manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha bilimlarini oshirdi

// 06.11.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-xodimlari-manfaatlar-to-qnashuvi-bo-yicha-

“O‘zkimyosanoat” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi mutaxassislari tomonidan xodimlar uchun “Manfaatlar to‘qnashuvining salbiy oqibatlari va unga qarshi samarali kurashish chora-tadbirlari” mavzusida seminar mashg‘uloti o‘tkazildi. Seminar davomida xodimlarga manfaatlar to‘qnashuvi sodir bo‘lganda jamiyat va davlatga yetkazilishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar tushuntirildi.



Shuningdek, xodimlarga “O‘zkimyosanoat” AJda vakant lavozimlarga nomzodlarni ishga olish, davlat xaridlarini o‘tkazish, pul operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha tashkilot rahbariyati va “Komplayens-nazorat” tuzilmalari tomonidan olib borilayotgan tizimli

ishlar, qabul qilinayotgan ichki me’yoriy hujjatlar va chora-tadbirlar haqida ma’lumot berildi.

Tadbir yakunida xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalari yanada mustahkamlandi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati